International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service
Vol. 1 Issue 1 | pp. 212-215 **| ISSN:** XXXX-XXXX
Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

The Economic Essence and Classification of Public Services in the Service Sector

Sagdullayev Ulugbek Axmadjon ugli*[1]

1. Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD), independent researcher
* Correspondence: izlanuvchi.usagdullayev@list.ru; https://orcid.org/0009-0008-3954-3287

Abstract: This article provides a theoretical examination of the role of the service sector in the modern economy and the economic nature of public services. It analyzes the characteristics of public services as a public good, the economic efficiency of their provision within a market environment, and their impact on the business climate. The article also proposes a scientific classification system for public services, based on various criteria.

Keywords: service sector, public services, social benefit, economic essence, classification of public services, digital economy, transaction costs.

KIRISH

Zamonaviy postindustrial iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning asosiy drayveriga aylanib bormoqda. Xizmatlar bozorining tarkibiy qismi sifatida davlat xizmatlari alohida o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va ehtiyojlarini qondiradi, balki mamlakatdagi investitsiya muhiti hamda biznes yuritish sharoitlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bozor mexanizmlari barcha ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni birdek qondira olmaganligi sababli («bozor muvaffaqiyatsizliklari»), davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar tizimini takomillashtirish va ularning iqtisodiy tabiatini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotining tarkibi tub o‘zgarishlarga yuz tutdi. Jumladan, 1990 yilda yaratilgan YAIMning tarkibida xizmatlarning ulushi 20% ni, 1950 yilda 34,1%ni, 2010 yilda 59,6 ga, 2024 yilga kelib esa 65,1% ga teng bo‘ldi. Xizmatlar sohasining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi bir tomondan xizmat turlarining ko‘payishi va xizmat ko‘rsatish faoliyatining xilma-xilligini ta’minlash orqali, ikkinchi tomondan servisning ajratib bo‘lmasligi xususiyatiga monand holda turli faoliyat yo‘nalishlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bir-birini to‘ldirish xususiyatining kuchayib borayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida xizmatlar sohasining ahamiyati yildan-yilga oshib servis iqtisodiyotining qaror topishida yetakchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, inson faoliyatining 25-30% tabiat in’omlarini inson ehtiyojlari uchun qayta ishlashga, qolgan 60-70% aynan shu faoliyatni boshqarish, rejalashtirish, nazorat qilish hamda texnik-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlashdan iborat bo‘lgan turli xildagi xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. So‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishning o‘zida axborot va ta’lim xizmatlari – 11,6% ni, menejment - 6,11%ni, ilmiy tadqiqotlar-4,9%ni tashkil etgan, axborot-maslahad xizmatlarini kengaytirish orqali ishlab

Citation: Ugli, S. U. A. The Economic Essence and Classification of Public Services in the Service Sector. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 212-215.

Received: 24th Aug 2026
Revised: 26th Sep 2026
Accepted: 28th Oct 2026
Published: 22nd Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

chiqarish harajatlarining 20% gacha tejalishiga erishilgan. Bu o‘z navbatida turli yo‘nalishdagi xizmatlaridan foydalanish asosida raqobat ustunligiga erishish imkoniyatini ham oshirmoqda. Shu bilan “...birga milliy iqtisodiyotda xizmatlar ulushining ustunligi, nafaqat aholi va tadbirkorlik sub’ektlari, balki davlat tuzilmalarining ham ma’lum bir xizmat turini ko‘rsatuvchi sub’ektga xosligi, mamlakat fuqarolari esa iste’molchi sifatida” [1]namoyon bo‘lishi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan “davlat xizmati” tushunchasini davlatning iqtisodiy faoliyati va ushbu faoliyat mahsuli sifatida olib qarashimiz mumkin. Ushbu yondashuv xizmat tushunchasining “iqtisodiy faoliyat natijasida yaratilgan, ishlab chiqarilgan yoki ko‘rsatiladigan nomoddiy harakterdagi tovar, yoki tovarning iste’mol xususiyatini oshirishga qaratilgan yoki yangicha tus beradigan jarayon” kabi talqiniga ham mosdir. Mazkur talqinga asoslanadigan bo‘lsak, “...davlatning aholi turmush va hayot sifatining lozim darajasini ta’minlashi, iqtisodiy faolligini kafolatlashi davomida iqtisodiy jarayonlarning sifat xususiyatini cheklangan resurslar hisobiga natijador shakllarga o‘zgartirishga hissa qo‘shishi muhimdir”[2]. Shu bilan birga davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi turli reglament, huquqiy hujjatlar hamda vakolatlar berish orqali iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishi yoki cheklashi ham mumkin. Bu o‘z navbatida davlat xizmatlari iqtisodiy xususiyatiga ko‘ra aynan tovar harakteriga ega bo‘lmaydi, balki mahsulotni yaratish bilan bog‘liq shart-sharoitni yaratish va kafolatlar berishga qaratilgan bilvosita xizmat ko‘rsatish jarayoni desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati

Iqtisodiy nuqtai nazardan, davlat xizmatlari - bu davlat organlari va vakolatli tashkilotlar tomonidan jismoniy hamda yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan yoki qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan, nomoddiy naf keltiruvchi va jamiyat farovonligini oshirishga qaratilgan faoliyat natijasidir.

Davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- Ijtimoiy ne’mat xususiyati: Ko‘pchilik davlat xizmatlari (mudofaa, jamoat tartibi, davlat boshqaruvi) iste’molda raqobatbardosh emaslik va istisno qilib bo‘lmaslik xususiyatiga ega sof ijtimoiy ne’matlar hisoblanadi.
- Tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish: Tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash, ruxsatnomalar berish va mulk huquqini kafolatlash kabi davlat xizmatlari bozor ishtirokchilarining vaqt va moliyaviy xarajatlarini (tranzaksiya xarajatlarini) qisqartirib, iqtisodiy faollikni oshiradi.
- Inson kapitalini rivojlantirish: Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasidagi davlat xizmatlari mehnat resurslari sifatini oshirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga poydevor yaratadi.
- Byudjet resurslarini qayta taqsimlash: Davlat xizmatlari soliqlar va davlat bojlari hisobidan moliyalashtirilib, milliy daromadni jamiyat a’zolari o‘rtasida adolatli qayta taqsimlash mexanizmi vazifasini bajaradi.

Davlat boshqaruvining “mijozlarga yo‘naltirilganligi”:

- davlatning asosiy faoliyati fuqarolarning barcha manfaatlarini rag‘batlantirishga qaratilishilishi;
- aniq ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishishni ta’minlashi;
- davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy faoliyati ma’lum belgilangan sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lishi;

[1] Козлова С.Б. Государственные жилищно-коммунальные услуги: финансово-экономические и организационные аспекты предоставления в Москве // Региональная экономика: теория и практика. 2014. №30. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennye-zhilischno-kommunalnye-uslugi-finansovo-ekonomicheskie-i-organizatsionnye-aspekty-predostavleniya-v-moskve.

[2] Султанбеков, А. Ф. Совершенствование государственного управления в Кыргызстане в условиях глобализации / А. Ф. Султанбеков, Т. О. Ожукеева // Вестник Академии управления при Президенте Кыргызской Республики. – 2009. – № 10. – С. 17-27. https://elibrary.ru/item.asp?id=25993187

- fuqarolarning qoniqqanlik darajasi zaruriy mezonga asoslanishi va shu kabilar;

- shaffofligi, ta'sirchanlig, ishonchliligi[3].

Fikrimizcha, davlat xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda quyidagi yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblaymiz:

Jarayonli yondashuv. Davlat xizmatlari davlat organlarining muayyan funksiyani bajarishi bilan bog'liq chora-tadbirlarini o'z ichiga olib, ushbu chora-tadbirlar ish, xizmat vazifasi, jarayon, bosqichlardan iborat bo'ladi. Mazkur holatda fuqarolarning turli toifalari uchun ushbu jarayonlarning muayyan makon va zamonda murakkablashib borishi natijasida ayrimlariga ehtiyoj yo'qolib boradi, ayrimlari esa aktuallashadi. Shu sababli ushbu jarayonlarni fuqarolarning xohish-istagiga ko'ra optimallashtirish, ko'rsatish, amalga oshirish, jarayonli bosqichni tugallash yoki davom ettirish bilan bog'liq qo'shimcha xizmatlarga zarurat mavjud.

Tizimli yondashuv. Davlat xizmatlari davlat va mahalliy boshqaruv tizimining ajralmas unsuri sifatida boshqaruv tizim va tizimchalari, me'yoriy-huquqiy tartibga solish, inson resurslarini boshqarish sifatida ham talqin etilishi mumkin. Mazkur holatda davlat xizmatlari ko'rsatish o'ziga xos ruxsat berish, reglamentlash, ta'qiqlash kabi tamoyillarini aks ettiradi.

Huquqiy yondashuv. "...davlat xizmati – ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Bunda ariza beruvchi davlat organiga so'rov bilan murojaat etgan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi. Agar qonunchilikka muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin"[4]. Davlat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq boshqa munosabatlar sohaga taalluqli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Bozor yondashuvi. Davlat xizmati bu – davlat organlari tomonidan fuqarolarga va turli tashkilotlarga ko'rsatiladigan xizmat" bo'lib, ushbu xizmatlarni taqdim etish jarayonida davlat va uning mahalliy boshqaruv organlari ayrim nisbiy ustunliklarga ega bo'ladi. Mazkur yondashuv asosida kishilik jamiyatidagi har qanday munosabatlar bozorni ifodalaydi, fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlar ham "davlat-xizmat ko'rsatuvchi → aholi iste'molchi" tamoyili asosida yo'lga qo'yiladi.

Marketing yondashuvi. Davlatning har qanday faoliyati iqtisodiy chegaralangan bo'lishi. Bu o'ziga xos bozorning iqtisodiy chegarasini ifodalab, ayrim iqtisodiy ne'matlar(xavfsizlik, ijtimoiy himoya, kommunal xizmatlar, fan va ta'lim, ilmiy-tadqiqot va shu kabilar)ni yaratish faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi lozimligini, aks holda iqtisodiy faoliyatning ushbu turlari bilan shug'ullanish aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun juda katta harajatlarga olib kelishini e'tiborga olish lozim. Demak, davlat tomonidan ayrim xizmatlar ko'rsatish ijtimoiy jihatdan manfaatli bo'lib, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Bugun aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga shaffof, qulay va soddalashtirilgan holda tezkor davlat xizmatlarini ko'rsatish eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, aholi va tadbirkorlarga samarali, tezkor va aniq xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida joylarda davlat xizmatlari ko'rsatishngi tashkil etilishi ushbu yo'nalishdagi ishlarning izchil amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda respublikamizning uzoq tuman va shahar davlat xizmatlari markazlari bilan birga filiallarning ham xizmat ko'rsatayotgani tuman markazlaridan uzoq masofada joylashgan aholi yashash joylaridagi fuqarolar, tadbirkorlarga yengillik yaratmoqda. Eng muhimi,

[3] Кандрина Н. А. Государственные услуги как разновидность публичных услуг: теоретико-правовые основы, классификация // Известия Алтайского государственного университета, 2018, № 6(104). С. 90-94 DOI: 10.14258/izvasu(2018)6-17. URL: http://izvestiya.asu.ru/article/view/%282018%296-17.

[4] Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 9 декабрдаги 395-сонли " Электрон ҳукумат тўғрисида" Қонуни.

bugun nafaqat markazlarda, balki qishloq joylarda ham davlat xizmatlaridan foydalanish borasida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatlari xizmat ko‘rsatish sohasining strategik muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u nafaqat ma’muriy-boshqaruv funksiyasini, balki iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi infratuzilma vazifasini ham bajaradi. Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish va «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyili asosida isloh qilinishi iqtisodiyotda yashirin sektor ulushini kamaytirishga va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] Козлова С.Б. Государственные жилищно-коммунальные услуги: финансово-экономические и организационные аспекты предоставления в Москве // Региональная экономика: теория и практика. 2014. №30. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennye-zhilischno-kommunalnye-uslugi-finansovo-ekonomicheskie-i-organizatsionnye-aspekty-predostavleniya-v-moskve.

[2] Султанбеков, А. Ф. Совершенствование государственного управления в Кыргызстане в условиях глобализации / А. Ф. Султанбеков, Т. О. Ожукеева // Вестник Академии управления при Президенте Кыргызской Республики. – 2009. – № 10. – С. 17-27. https://elibrary.ru/item.asp?id=25993187

[3] Кандрина Н. А. Государственные услуги как разновидность публичных услуг: теоретико-правовые основы, классификация // Известия Алтайского государственного университета, 2018, № 6(104). С. 90-94 DOI: 10.14258/izvasu(2018)6-17.URL: http://izvestiya.asu.ru/article/view/%282018% 296-17.

[4] Pardaev O.M., Sagdullaev U. The Oretical Fundamentals Of Giving Public Services To The Population. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.1 Economical sciences. https://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/380.

[5] О.М.Пардаев, У.Сагдуллаев. «ЯГОНА ДАРЧА» тамойили бўйича давлат хизматлари кўрсатиш. Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар мавзусидаги республика 31-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари 31-август 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 55 б. 9-қисм. 38-41 бет.